

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XAMITOV AZIZBEK AXMADJON O‘G‘LI

**UCH O‘LCHOVLI FAZODA UCHINCHI TARTIBLI KARRALI
XARAKTERISTIKALI TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY
MASALALAR**

01.01.02 - Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Xamitov Azizbek Axmadjon o'g'li

Uch o'lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalalar3

Хамитов Азизбек Ахмаджон угли

Краевые задачи для уравнения третьего порядка с кратными характеристиками в трехмерном пространстве.....21

Khamitov Azizbek Akhmadzhon ugli

Boundary value problems for a third-order equation with multiple characteristics in three-dimensional space39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XAMITOV AZIZBEK AXMADJON O‘G‘LI

**UCH O‘LCHOVLI FAZODA UCHINCHI TARTIBLI KARRALI
XARAKTERISTIKALI TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY
MASALALAR**

01.01.02 - Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona - 2025

Fizika – matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/FM1144 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyme)). Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Apakov Yusupjon Pulatovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sitnik Sergey Mixaylovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ibaydullayev To'lanboy Tursunboyevich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «8» 09 soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-22-94. e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (562 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94. e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 «25» 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil «25» 08 dagi 9 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.T. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., dotsent

I.U. Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

K.S. Gaziyeu
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.n., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda miqyosida olib borilayotgan ko‘plab amaliy masalalarni tatqiq etish differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni hal qilishga olib kelinadi. Xususan, chiziqli bo‘lmagan akustika va kosmik plazmaning gidrodinamika nazariyalari, g‘ovakli muhitlarda suyuqliklarni filtrlash masalalari, axonlarda signallar tarqalishi, yadro reaktorlaridagi issiqlik tarqalishi va boshqa ko‘plab amaliy masalalar ko‘pincha uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarga keltiriladi. Bundan ko‘rinadiki, uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali differensial tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechish yuqoridagi amaliy masalalarni tahlillari va xususiyatlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurni ta‘minlagan holda xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni qo‘yish va ularning yechish usullarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni shartli ravishda ikki yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Bulardan birinchisi chegaraviy masalalar yechimlarining yagonaligi haqidagi teoremlarni isbotlash bo‘lsa, ikkinchisi esa ko‘rib chiqilayotgan chegaraviy masalalarning xos qiymatlari va xos funksiyalarini aniqlash va ular asosida chegaraviy masalalar yechimlarining mavjudligi haqidagi teoremlarni isbotlashdir. Bu yo‘nalishlardagi ilmiy izlanishlar hozirda jadal davom etmoqda va rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan, uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish maqsadli ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

Respublikamizda fundamental, amaliy va innovatsion g‘oyalarga asoslangan tadqiqotlar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari, xususan, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar va optimal boshqaruv, amaliy matematika va matematik modellashtirish, matematik analiz va funksiyalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, algebra va geometriya bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematiklarning asosiy vazifalari va faoliyati sifatida belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan ilm-fanning turdosh sohalarida qo‘llash maqsadida, uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 292-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarni qo‘yish va o‘rganish muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bugungi kunga qadar ikki o‘lchovli fazolarda ikkinchi, uchinchi va yuqori tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, O.S. Rijovning ishida gazning issiqlik o‘tkazuvchanligi va qovushqoqlik xossalarini hisobga olib Navye-Stoks sistemasidan uchinchi tartibli karrali xarakteristikali vaqt bo‘yicha ikkinchi tartibli hosilani o‘z ichiga olgan quyidagi tenglama hosil qilingan

$$u_{xxx} + u_{yy} - \frac{v}{y}u_y = u_x u_{xx}, \quad v = \text{const.}$$

Bu tenglama $v=1$ bo‘lganda koordinata o‘qlariga simmetrik oqimni, $v=0$ bo‘lganda esa koordinata o‘qlari joylashgan tekislikka tekis parallel oqimni ifodalaydi, keyinchalik bu oqim V.N. Diesperov tomonidan o‘rganilgan.

Uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar bo‘yicha dastlabki natijalarni H.Block va E.Del Vecchio ishlarida olingan. L.Catabriga esa $D_x^{2n+1}u - D_y^2u = 0$ tenglama uchun ikki karrali xosmas integrallar orqali ifodalangan fundamental yechim qurgan, potensial xususiyatlarini o‘rgangan va chegaraviy masala yechgan. Ushbu nazariyaning rivojiga V.I.Jegalov, V.F.Volkodavov, V.V.Azovskiy, K.B.Sabitov, S.M.Sitnik, A.N.Mironov, Zh.A.Balkizov, G.A.Lukina, A.Ashuraliyev, A.I.Kojanov, Y.A.Utkina va boshqa olimlar ham sezilarli hissa qo‘shishgan.

Respublikamizda ushbu turdagi differensial tenglamalar bo‘yicha natijalar T.D.Djurayev, S.Abdinazarov, Yu.P.Apakov, Z.A.Sobirov, A.R.Xoshimov, B.Yu.Irgashev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular ikki o‘lchovli fazoda

uchinchi tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o'rganish. Shuningdek, A.K.Urinov, Sh.T.Karimov va K.T.Karimovning ishlarida singulyar koeffitsientli ikki va ko'p o'lchovli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar o'rganilgan.

Ko'plab matematiklarning olgan natijalariga qaramay, uchinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun uch o'lchovli fazoda chegaraviy masalalar nazariyasini yanada rivojlantirish talab etiladi. Shu sababli, bunday tenglamalarni chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda o'rganish nazariyani rivojlantirishda muayyan ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Differensial tenglamalarning klassik va noklassik masalalari va ularning tadbirlari" dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uch o'lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni qo'yish va tadqiq etishdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalalar yechimlarining mavjudligi va yagonaligi isbotlash;

yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun korrekt chegaraviy masalalarni qo'yish va o'rganish;

uchinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamaga qo'yilgan aralash shartli chegaraviy masala uchun Grin funksiyasini qurish, uning strukturasi hamda asosiy xossalarni aniqlash;

uchinchi tartibli karrali xarakteristikali bir jinsli bo'lmagan differensial tenglama uchun qo'yilgan aralash shartli chegaraviy masalalar korrektiligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti uch o'lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalardan iborat.

Tadqiqotning predmeti chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik va funksional tahlil usullari, differensial tenglamalar, matematik fizika, chiziqli algebra, qatorlar nazariyasi, shuningdek, yechimlarni qurish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chegaralangan sohada uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalalar yechimlarining mavjudligi va yagonaligi Furye va energiya integrallari usullari yordamida isbotlangan;

yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishi o'zgaruvchilarni ajratish hamda energiya integrallari usullaridan foydalanib isbotlangan;

Furye usuli yordamida hosil qilingan uchinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan oddiy differensial tenglamaga qo‘yilgan aralash shartli chegaraviy masala uchun Grin funksiyasi qurilib, uning strukturasi hamda asosiy xossalari aniqlangan;

uchinchi tartibli karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglama uchun aralash shartli chegaraviy masalalar korrektiligi Furye, Grin funksiyalar va energiya integrallari usullaridan foydalanib isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari analitik yechimlardan fizik jarayonlarning sifat xususiyatlarini o‘rganishda, shuningdek ularni sonli hisoblarda qo‘llash imkoniyatidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik va funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika usullarining qat’iy qo‘llanishi, chegaraviy masalalarning yechimlarini oshkor ko‘rinishda qurishda Grin funksiyalari nazariyasidan foydalanish, shuningdek, teoremlar isbotlarining to‘liqligi va qat’iyligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ularning ikki, uch va ko‘p o‘lchovli fazolarda yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirishda qo‘llanilishidadir. Amaliy ahamiyati esa olingan natijalarni fizik jarayonlarni o‘rganishda va uch o‘lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar bilan tavsiflangan fanning turli sohalarida qo‘llash imkoniyati bilan bog‘lanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish. Uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda xususiy hosilali uchinchi tartibli karrali xarakteristikali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uch o‘lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun chegaraviy masalalarning yechimlarini Grin funksiyasi yordamida qurishning yangi usullari bo‘yicha olingan natijalar NIOKTR 122041800029-5 raqamli “Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshqaruv masalalari va ularni taqsimlangan parametrlarga ega sistemalarni o‘rganishda qo‘llanilishi” nomli xorijiy loyiha bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasining Kabardin-Balkar ilmiy markazi Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2025-yil 15-apreldagi № 01-13/47-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori tartibli bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarni yechish imkonini bergan;

uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda xususiy hosilali uchinchi tartibli karrali xarakteristikali differensial tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarning yechimini qurish usullari bo‘yicha olingan natijalar 374874-2022 raqamli “Fazali o‘tish masalalari va kritik hodisalari. Tenglamalarning matematik jihatlari, tezkor o‘tishlar va asimptotika” nomli xorijiy loyiha bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanilgan (Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh Davlat universitetining 2025-yil 17- apreldagi №652-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, uch o‘lchovli fazoda chegaralangan va yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli

tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarning oshkor ko‘rinishdagi yechimlarini qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda taqdim etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shu jumladan, 7 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 91 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘yekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Uch o‘lchovli fazoda chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish**” deb nomlangan **birinchi bobi** uch o‘lchovli fazoda chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun korrekt qo‘yilgan chegaraviy masalalarga bag‘ishlangan, qo‘yilgan masalalar yechimlarining yagonaligi energiya integrallari usulida, mavjudligi esa Furrye usulida isbotlangan.

$D = \{(x, y, z) : x \in (0, p), y \in (0, q), z \in (0, r)\}$ sohada uchinchi tartibli

$$L[u] \equiv u_{xxx} - u_{yy} - u_{zz} = 0, \quad (1)$$

tenglamani qaraymiz, bu yerda $p, q, r \in R^+$, $R^+ = \{p, q, r \in R, p > 0, q > 0, r > 0\}$.

Birinchi bobning birinchi paragrafida chegaraviy masalalar qo‘yilgan va masalalar yechimlarining yagonaligi isbotlangan.

A_1 **masala.** D sohada

$$u(x, y, z) \in C_{x,y,z}^{3,2,2}(D) \cap C_{x,y,z}^{2,1,1}(\bar{D}) \quad (2)$$

sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi

$$\begin{aligned} u(x, 0, z) = u(x, q, z) = 0, \\ u(x, y, 0) = u(x, y, r) = 0, \end{aligned} \quad x \in [0, p], y \in [0, q], z \in [0, r], \quad (3)$$

$$\begin{aligned} u(0, y, z) = \psi_1(y, z), u(p, y, z) = \psi_2(y, z), \\ u_x(p, y, z) = \psi_3(y, z), \quad y \in [0, q], z \in [0, r], \end{aligned} \quad (4)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechim topilsin, bu yerda $\psi_i(y, z), i = \overline{1, 3}$ - lar \overline{D} sohada berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

1-teorema. Agar A_1 masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u yagonadir.

A_2 **masala.** D sohada (2) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda (4) va quyidagi

$$\begin{aligned} u_y(x, 0, z) = u_y(x, q, z) = 0, \\ u_z(x, y, 0) = u_z(x, y, r) = 0, \quad x \in [0, p], y \in [0, q], z \in [0, r], \end{aligned} \quad (5)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechim topilsin.

2-teorema. Agar A_2 masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u yagonadir.

A_3 **masala.** D sohada (2) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda (4) va quyidagi

$$\begin{cases} \alpha u(x, 0, z) + \beta u_y(x, 0, z) = 0, \\ \gamma u(x, q, z) + \delta u_y(x, q, z) = 0, \\ u(x, y, 0) = u(x, y, r) = 0, \end{cases} \quad x \in [0, p], y \in [0, q], z \in [0, r], \quad (6)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechim topilsin, bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta \in R \setminus \{0\}$.

3-teorema. Agar A_3 masalaning yechimi mavjud bo'lib, $\alpha\beta < 0$ va $\gamma\delta > 0$ shartlar bajarilganda yechim yagonadir.

A_4 **masala.** D sohada (2) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda (4) va quyidagi

$$\begin{cases} \alpha u(x, y, 0) + \beta u_z(x, y, 0) = 0, \\ \gamma u(x, y, r) + \delta u_z(x, y, r) = 0, \\ u(x, 0, z) = u(x, q, z) = 0, \end{cases} \quad x \in [0, p], y \in [0, q], z \in [0, r], \quad (7)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechim topilsin, bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta \in R \setminus \{0\}$.

4-teorema. Agar A_4 masalaning yechimi mavjud bo'lib, $\alpha\beta < 0$ va $\gamma\delta > 0$ shartlar bajarilganda yechim yagonadir.

Qo'yilgan masalalar yechimlarining yagonalik teoremlari energiya integrallari usuli yordamida isbotlangan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida D sohada (1) tenglama uchun A_1 masala yechimining mavjudligi isbotlangan va yechim cheksiz qator ko'rinishida qurilgan.

5-teorema. Agar $\psi_i(y, z), i = \overline{1, 3}$ funksiyalar uchun quyidagi shartlar bajarilsa:

1) $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{3,3}(\overline{\Pi}), i = \overline{1, 3}$, bu yerda $\overline{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$;

$$2) \begin{cases} \psi_i(0, z) = \psi_i(q, z) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_i(0, z)}{\partial y^2} = \frac{\partial^2 \psi_i(q, z)}{\partial y^2} = 0, \\ \psi_i(y, 0) = \psi_i(y, r) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_i(y, 0)}{\partial z^2} = \frac{\partial^2 \psi_i(y, r)}{\partial z^2} = 0, \end{cases} \quad i = \overline{1, 3},$$

u holda A_1 masalaning yechimi ko'rsatilgan funksiyalar sinfida mavjud.

5-teoremaning isboti Furye usuli bilan amalga oshirilgan va A_1 masalaning yechimi quyidagi ko'rinishda topilgan:

$$u(x, y, z) = \frac{2}{\sqrt{qr}} \sum_{n,m=1}^{+\infty} \left[C_{1n,m} e^{-k_{n,m}x} + e^{\frac{1}{2}k_{n,m}x} \left(C_{2n,m} \cos \frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}x + C_{3n,m} \sin \frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}x \right) \right] \times \\ \times \sin \frac{n\pi y}{q} \sin \frac{m\pi z}{r},$$

bu yerda

$$C_{1n,m} = \frac{1}{\Delta} \left[\frac{\sqrt{3}}{2} \psi_{1n,m} k_{n,m} e^{k_{n,m}p} - \psi_{2n,m} \delta k_{n,m} e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} + \psi_{3n,m} \beta e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} \right], \\ C_{2n,m} = \frac{1}{\Delta} \left[-k_{n,m} (\beta + \delta) \psi_{1n,m} e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} + \psi_{2n,m} \delta k_{n,m} e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} - \psi_{3n,m} \beta e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} \right], \\ C_{3n,m} = \frac{1}{\Delta} \left[k_{n,m} (\alpha + \gamma) \psi_{1n,m} e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} - \psi_{2n,m} k_{n,m} \left(e^{-k_{n,m}p} + \gamma e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} \right) + \right. \\ \left. + \psi_{3n,m} \left(\alpha e^{\frac{1}{2}k_{n,m}p} - e^{-k_{n,m}p} \right) \right], \\ \Delta = \sqrt{3} k_{n,m} e^{k_{n,m}p} \left(\frac{1}{2} - e^{\frac{3}{2}k_{n,m}p} \sin \left(\frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}p + \frac{\pi}{6} \right) \right), \\ \alpha = \cos \frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}p, \quad \beta = \sin \frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}p, \quad \gamma = \cos \left(\frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}p + \frac{\pi}{3} \right), \\ \delta = \sin \left(\frac{\sqrt{3}}{2} k_{n,m}p + \frac{\pi}{3} \right), \quad k_{n,m} = \sqrt[3]{\left(\frac{n^2}{q^2} + \frac{m^2}{r^2} \right) \pi^2}, \\ \psi_{in,m} = \frac{2}{\sqrt{qr}} \int_0^q \int_0^r \psi_i(y, z) \sin \frac{n\pi y}{q} \sin \frac{m\pi z}{r} dy dz, \quad i = \overline{1,3}, \quad n, m \in N.$$

Shuni ta'kidlash kerakki, Δ kichik mahraj bo'lmasligi, uning noldan farqli ($\Delta \neq 0$), hamda $\min|\Delta| > 0$ ekani isbotlangan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida A_2 , A_3 va A_4 masalalarning yechimlari qurilgan. Quyidagi teoremlar isbotlangan:

6-teorema. Agar $\psi_i(y, z)$, $i = \overline{1,3}$ funksiyalar uchun quyidagi shartlar bajarilsa:

1) $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{3,3}(\overline{\Pi})$, $i = \overline{1,3}$, bu yerda $\overline{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$;

$$2) \begin{cases} \frac{\partial \psi_i(0, z)}{\partial y} = \frac{\partial \psi_i(q, z)}{\partial y} = 0, & \frac{\partial^4 \psi_i(y, 0)}{\partial y^3 \partial z} = \frac{\partial^4 \psi_i(y, r)}{\partial y^3 \partial z} = 0, \\ \frac{\partial \psi_i(y, 0)}{\partial z} = \frac{\partial \psi_i(y, r)}{\partial z} = 0, & \frac{\partial^4 \psi_i(0, z)}{\partial y \partial z^3} = \frac{\partial^4 \psi_i(q, z)}{\partial y \partial z^3} = 0, \end{cases} \quad i = \overline{1, 3},$$

u holda A_2 masalaning yechimi ko‘rsatilgan funksiyalar sinfida mavjud.

7-teorema. Agar $\psi_i(y, z)$, $i = \overline{1, 3}$ funksiyalar uchun quyidagi shartlar bajarilsa:

1) $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{4,3}(\overline{\Pi})$, $i = \overline{1, 3}$, bu yerda $\overline{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$;

$$2) \begin{cases} \alpha \frac{\partial^j \psi_i(0, z)}{\partial y^j} + \beta \frac{\partial^{j+1} \psi_i(0, z)}{\partial y^{j+1}} = 0, & \gamma \frac{\partial^j \psi_i(q, z)}{\partial y^j} + \delta \frac{\partial^{j+1} \psi_i(q, z)}{\partial y^{j+1}} = 0, \quad j = 0, 2, \\ \frac{\partial^4 \psi_i(y, r)}{\partial y^4} = \frac{\partial^4 \psi_i(y, 0)}{\partial y^4} = 0, & \frac{\partial^6 \psi_i(y, r)}{\partial y^4 \partial z^2} = \frac{\partial^6 \psi_i(y, 0)}{\partial y^4 \partial z^2} = 0, \quad i = \overline{1, 3}, \end{cases}$$

u holda A_3 masalaning yechimi ko‘rsatilgan funksiyalar sinfida mavjud.

8-teorema. Agar $\psi_i(y, z)$, $i = \overline{1, 3}$ funksiyalar uchun quyidagi shartlar bajarilsa:

1) $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{3,4}(\overline{\Pi})$, $i = \overline{1, 3}$, bu yerda $\overline{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$;

$$2) \begin{cases} \psi_i(0, z) = \psi_i(q, z) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_i(0, z)}{\partial y^2} = \frac{\partial^2 \psi_i(q, z)}{\partial y^2} = 0, \\ \alpha \frac{\partial^{3+j} \psi_i(y, 0)}{\partial y^3 \partial z^j} + \beta \frac{\partial^{4+j} \psi_i(y, 0)}{\partial y^3 \partial z^{j+1}} = 0, & j = 0, 2, \quad i = \overline{1, 3}, \\ \gamma \frac{\partial^{3+j} \psi_i(y, 0)}{\partial y^3 \partial z^j} + \delta \frac{\partial^{4+j} \psi_i(y, 0)}{\partial y^3 \partial z^{j+1}} = 0, \end{cases}$$

u holda A_4 masalaning yechimi ko‘rsatilgan funksiyalar sinfida mavjud.

Dissertatsiyaning “**Uch o‘lchovli fazoda yarim chegaralangan sohalarda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalalar**” deb nomlangan **ikkinchi bobida** $D^+ = \{(x, y, z) : x \in (0, +\infty), y \in (0, q), z \in (0, r)\}$ va $D^- = \{(x, y, z) : x \in (-\infty, 0), y \in (0, q), z \in (0, r)\}$, bu yerda $q, r \in R^+$, sohalarda (1) tenglama uchun chegaraviy masalalar o‘rganilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida birinchi chegaraviy masala qo‘yilgan, yechimning yagonaligi va mavjudligi isbotlangan.

B_1 masala. D^+ sohada

$$C_{x,y,z}^{3,2,2}(D^+) \cap C_{x,y,z}^{2,1,1}(D^+ \cup \Gamma_1), \quad (8)$$

sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi $x \in [0, +\infty)$ da (3) va

$$u(0, y, z) = \psi_1(y, z), \quad (9)$$

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} u(x, y, z) = \lim_{x \rightarrow +\infty} u_x(x, y, z) = 0, \quad y \in [0, q], z \in [0, r],$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi, hamda $x \rightarrow +\infty$ da y va z o'zgaruvchilari bo'yicha birinchi tartibli hosilasi, x ga nisbatan tekis va x o'zgaruvchiga nisbatan ikkinchi tartibli hosilalari chegaralangan va $u_y, u_z \in L_2(D^+)$ regulyar yechim topilsin, bu yerda $\Gamma_1 = \partial D^+ - D^+$ sohaning chegarasi, $\psi_1(y, z)$ berilgan yetarlicha silliq funksiya, u uchun

$$\begin{cases} \psi_1(0, z) = \psi_1(q, z) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_1(0, z)}{\partial y^2} = \frac{\partial^2 \psi_1(q, z)}{\partial y^2} = 0, \\ \psi_1(y, 0) = \psi_1(y, r) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_1(y, 0)}{\partial z^2} = \frac{\partial^2 \psi_1(y, r)}{\partial z^2} = 0, \end{cases} \quad (10)$$

shart o'rinli.

B_2 masala. D^- sohada

$$C_{x,y,z}^{3,2,2}(D^-) \cap C_{x,y,z}^{2,1,1}(D^- \cup \Gamma_2), \quad (11)$$

sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi $x \in (-\infty, 0]$ da (3) va

$$\begin{aligned} u(0, y, z) &= \psi_2(y, z), & u_x(0, y, z) &= \psi_3(y, z), \\ \lim_{x \rightarrow -\infty} u(x, y, z) &= 0, & y \in [0, q], z \in [0, r], \end{aligned} \quad (12)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi, hamda $x \rightarrow -\infty$ da y va z o'zgaruvchilari bo'yicha birinchi tartibli hosilasi, x ga nisbatan tekis va x o'zgaruvchiga nisbatan birinchi va ikkinchi tartibli hosilalari chegaralangan va $u_y, u_z \in L_2(D^-)$ regulyar yechim topilsin, bu yerda $\Gamma_2 = \partial D^- - D^-$ sohaning chegarasi, $\psi_i(y, z), i = 2, 3$ -lar berilgan yetarlicha silliq funksiyalar, u uchun

$$\begin{cases} \psi_i(0, z) = \psi_i(q, z) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_i(0, z)}{\partial y^2} = \frac{\partial^2 \psi_i(q, z)}{\partial y^2} = 0, \\ \psi_i(y, 0) = \psi_i(y, r) = 0, & \frac{\partial^2 \psi_i(y, 0)}{\partial z^2} = \frac{\partial^2 \psi_i(y, r)}{\partial z^2} = 0, \end{cases} \quad i = 2, 3, \quad (13)$$

shart o'rinli.

9-teorema. Agar B_1 va B_2 masalalarning yechimlari mavjud bo'lsa, u holda har bir yechim yagona.

9-teorema energiya integrallari usuli bilan isbotlangan. Bu usulni yarim chegaralangan sohalarda qo'llash uchun avvalo $x = d > 0$ ($x = c < 0$) chiziqlar bilan chegaralangan sohani ko'rib chiqiladi, so'ngra $d \in \mathbb{R}^+ + \Gamma$ ($c \in \mathbb{R}^- - \Gamma$) (1) tenglama uchun qo'yilgan boshlang'ich masala yechimining yagonaligi isbotlanadi.

10-teorema. Agar $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{3,3}(\bar{\Pi}), i = \overline{1,3}$, bu yerda $\bar{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$ funksiyalar sinfga tegishli bo'lib, (10) va (13) shartlar mos ravishda bajarilsa, u holda B_1 va B_2 masalalarning yechimi mavjud bo'ladi.

10-teorema Furrye usuli bilan isbotlangan va yechim oshkor cheksiz qator ko'inishda qurilgan. Berilgan sohalarda yechimni va (1) tenglamaga kiruvchi xususiy hosilalarini absolyut va tekis yaqinlashishi ko'rsatilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida ikkinchi chegaraviy masala qo'yilgan, yechimning yagonaligi va mavjudligi isbotlangan.

B_3 masala. D^+ sohada (8) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi $x \in [0, +\infty)$ da (5) va (9) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi, hamda $x \rightarrow +\infty$ da x o'zgaruvchi bo'yicha ikkinchi tartibli hosilasi, y va z o'zgaruvchilariga nisbatan tekis chegaralangan va $u_y, u_z \in L_2(D^+)$ regulyar yechim topilsin, bu yerda $\psi_1(y, z)$ berilgan yetarlicha silliq funksiya, u uchun

$$\begin{cases} \frac{\partial \psi_1(0, z)}{\partial y} = \frac{\partial \psi_1(q, z)}{\partial y} = 0, & \frac{\partial^4 \psi_1(y, 0)}{\partial y^3 \partial z} = \frac{\partial^4 \psi_1(y, r)}{\partial y^3 \partial z} = 0, \\ \frac{\partial \psi_1(y, 0)}{\partial z} = \frac{\partial \psi_1(y, r)}{\partial z} = 0, & \frac{\partial^4 \psi_1(0, z)}{\partial z^3 \partial y} = \frac{\partial^4 \psi_1(q, z)}{\partial z^3 \partial y} = 0, \end{cases} \quad (14)$$

shart o'rinli.

B_4 masala. D^- sohada (11) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi $x \in (-\infty, 0]$ da (5) va (12) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi, hamda $x \rightarrow -\infty$ da x o'zgaruvchi bo'yicha birinchi va ikkinchi tartibli hosilasi, y va z o'zgaruvchilariga nisbatan tekis chegaralangan va $u_y, u_z \in L_2(D^-)$ regulyar yechim topilsin, bu yerda $\psi_i(y, z), i = 2, 3$ -lar berilgan yetarlicha silliq funksiyalar, u uchun

$$\begin{cases} \frac{\partial \psi_i(0, z)}{\partial y} = \frac{\partial \psi_i(q, z)}{\partial y} = 0, & \frac{\partial^4 \psi_i(y, 0)}{\partial y^3 \partial z} = \frac{\partial^4 \psi_i(y, r)}{\partial y^3 \partial z} = 0, \\ \frac{\partial \psi_i(y, 0)}{\partial z} = \frac{\partial \psi_i(y, r)}{\partial z} = 0, & \frac{\partial^4 \psi_i(0, z)}{\partial z^3 \partial y} = \frac{\partial^4 \psi_i(q, z)}{\partial z^3 \partial y} = 0, \end{cases} \quad i = 2, 3, \quad (15)$$

shart o'rinli.

11-teorema. Agar B_3 va B_4 masalalarning yechimlari mavjud bo'lsa, u holda har bir yechim yagona.

11- teoremaning isboti 9-teorema kabi isbotlangan.

12-teorema. Agar $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{3,3}(\bar{\Pi}), i = \overline{1, 3}$, bu yerda $\bar{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$ funksiyalar sinfga tegishli bo'lib, (14) va (15) shartlar mos ravishda bajarilsa, u holda B_3 va B_4 masalalarning yechimi mavjud bo'ladi.

12-teorema Furrye usuli bilan isbotlangan, hamda yechim $n = m = 0$ va $n^2 + m^2 \neq 0$ hollarida cheksiz qator ko'inishida topilgan. Har bir holda topilgan cheksiz qator ko'inishidagi yechim va uning (1) tenglamaga kiruvchi xususiy hosilalari berilgan sohada absolyut va tekis yaqinlashishi ko'rsatilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida uchinchi chegaraviy masala qo'yilgan, yechimning yagonaligi va mavjudligi isbotlangan.

B_5 masala. D^+ sohada (8) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi $x \in [0, +\infty)$ da (6) va (9) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi, hamda $x \rightarrow +\infty$ da x o'zgaruvchi bo'yicha ikkinchi tartibli hosilasi, y va z o'zgaruvchilariga nisbatan tekis chegaralangan va $u_y, u_z \in L_2(D^+)$ regulyar yechim topilsin, bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta \in R \setminus \{0\}$, $\psi_1(y, z)$ berilgan yetarlicha silliq funksiya, u uchun

$$\begin{cases} \alpha \frac{\partial^j \psi_1(0, z)}{\partial y^j} + \beta \frac{\partial^{j+1} \psi_1(0, z)}{\partial y^{j+1}} = 0, & \gamma \frac{\partial^j \psi_1(q, z)}{\partial y^j} + \delta \frac{\partial^{j+1} \psi_1(q, z)}{\partial y^{j+1}} = 0, \\ \frac{\partial^4 \psi_1(y, r)}{\partial y^4} = \frac{\partial^4 \psi_1(y, 0)}{\partial y^4} = 0, & \frac{\partial^6 \psi_1(y, r)}{\partial y^4 \partial z^2} = \frac{\partial^6 \psi_1(y, 0)}{\partial y^4 \partial z^2} = 0, \end{cases} \quad j = 0, 2, \quad (16)$$

shart o'rinli.

B_6 masala. D^- sohada (11) sinfga tegishli, (1) tenglamani hamda quyidagi $x \in (-\infty, 0]$ da (6) va (12) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi, hamda $x \rightarrow -\infty$ da x o'zgaruvchi bo'yicha birinchi va ikkinchi tartibli hosilasi, y va z o'zgaruvchilariga nisbatan tekis chegaralangan va $u_y, u_z \in L_2(D^-)$ regulyar yechim topilsin, bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta \in R \setminus \{0\}$, $\psi_i(y, z)$, $i = 2, 3$ -lar berilgan yetarlicha silliq funksiyalar, u uchun

$$\begin{cases} \alpha \frac{\partial^j \psi_i(0, z)}{\partial y^j} + \beta \frac{\partial^{j+1} \psi_i(0, z)}{\partial y^{j+1}} = 0, & \gamma \frac{\partial^j \psi_i(q, z)}{\partial y^j} + \delta \frac{\partial^{j+1} \psi_i(q, z)}{\partial y^{j+1}} = 0, & j = 0, 2, \\ \frac{\partial^4 \psi_i(y, 0)}{\partial y^4} = \frac{\partial^4 \psi_i(y, r)}{\partial y^4} = 0, & \frac{\partial^6 \psi_i(y, 0)}{\partial y^4 \partial z^2} = \frac{\partial^6 \psi_i(y, r)}{\partial y^4 \partial z^2} = 0, & i = 2, 3, \end{cases} \quad (17)$$

shart o'rinli.

13-teorema. Agar B_5 va B_6 masalalarning yechimlari mavjud bo'lib, hamda $\alpha\beta < 0$, $\gamma\delta > 0$ shartlar bajarilsa, bu yechimlar yagona.

13-teorema energiya integrallari usulida isbotlangan, hamda B_5 va B_6 masalalarning yechimlari yagona ekanligini ta'minlovchi α , β , γ va δ koeffisientlar uchun yetarlicha shartlar topilgan.

14-teorema. Agar $\psi_i(y, z) \in C_{y,z}^{4,3}(\bar{\Pi})$, $i = \overline{1, 3}$, bu yerda $\bar{\Pi} = \{(y, z) : y \in [0, q], z \in [0, r]\}$ funksiyalar sinfga tegishli bo'lib, (16) va (17) shartlar mos ravishda bajarilsa, u holda B_5 va B_6 masalalarning yechimi mavjud bo'ladi.

14-teorema 10-teoremaning isboti bilan o'xshash usulda isbotlanadi, ammo xos qiymatlar, xos funksiyalar va chegaraviy funksiyalari $\psi_i(x, y)$, $i = \overline{1, 3}$ sinfi bilan farq qiladi, va bu funksiyalar berilgan sohalarda topilgan cheksiz qatorlar ko'rinishidagi yechimning tekis yaqinlashishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning “Uch o‘lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun chegaraviy masalalar” deb nomlangan uchinchi bobida uch o‘lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun chegaraviy masalalar qo‘yilgan. Qo‘yilgan chegaraviy masalalar yechimlarining yagonaligi energiya integrallari usulida, mavjudligi Furiye usuli va Grin funksiyasini qurish usulida isbotlangan.

Ushbu bobda $D = \{(x, y, z) : x \in (0, p), y \in (0, q), z \in (0, r)\}$ sohada quyidagi

$$L[u] \equiv u_{xxx} - u_{yy} - u_{zz} = f(x, y, z), \quad (18)$$

uchinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan tenglamani qaraymiz, bu yerda $p, q, r \in R^+$, $f(x, y, z)$ berilgan \bar{D} sohada yetarlicha silliq funksiya.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida chegaraviy masalalar qo‘yilgan va ularning yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan.

E_1 masala. D sohada (2) sinfga tegishli, (18) tenglamani hamda quyidagi (3) va

$$\begin{cases} au(0, y, z) + bu_{xx}(0, y, z) = \psi_1(y, z), \\ cu(p, y, z) + du_{xx}(p, y, z) = \psi_2(y, z), & y \in [0, q], \quad z \in [0, r], \\ u_x(p, y, z) = \psi_3(y, z), \end{cases} \quad (19)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechim topilsin, bu yerda $a, b, c, d \in R \setminus \{0\}$, $\psi_i(y, z), i = \overline{1, 3}$ - lar \bar{D} sohada berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

15-teorema. Agar E_1 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $ab > 0$, $cd < 0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

E_2 masala. D sohada (2) sinfga tegishli, (18) tenglamani hamda (5) va (19) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechim topilsin, bu yerda $a, b, c, d \in R \setminus \{0\}$, $\psi_i(y, z), i = \overline{1, 3}$ - lar \bar{D} sohada berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

16-teorema. Agar E_2 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $ab > 0$, $cd < 0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

